

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

HAVO KONDITSIONERI

Iltilimos, ushbu jihozni ishlatishdan avval qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

POLGA QO'YILADIGAN

ENERGIYANI TEJASHGA OID MASLAHATLAR

Quyida konditsioneridan foydalanganingizda energiya sarfini minimal darajada kamaytirish bo'yicha ba'zi maslahatlar berilgan. Quyidagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda konditsioneringizdan yanada samaraliroq foydalanishingiz mumkin:

- Xonani haddan ortiq sovutib yubormang. Bu sog'lig'ingizga zararli bo'lishi mumkin hamda ko'proq elektr quvvatini sarf qilishi mumkin.
- Havo konditronerini ishlatayotganda, quyosh nurini jaluza yoki pardalar bilan to'sing.
- Konditsioner ishlayotgan vaqtda eshik va derazalarni mahkam yopib qo'ying.
- Xona havosi aylanishini ta'minlash uchun havo oqimini vertikal yoki gorizontaal yo'nalishga to'g'irlang.
- Qisqa vaqt ichida xona havosini sovutish yoki isitish uchun ventilator tezligini oshiring.
- Havo filtrini har 2 haftada bir marta tozalab turing. Havo filtrida yig'ilib qolgan chang va kir havo oqimini to'sib qo'yishi yoki sovutish / namsizlantirish funksiyalarini zaiflashtirishi mumkin.

Qaydlar uchun

Xarid sanasini tasdiqlash zarur bo'lganda yoki kafolat maqsadlarida xarid chekini shu yerga tikib qo'ying. Model raqami va seriya raqamini bu yerga yozing:

Model raqami :

Seriya raqami :

Ularni har bir konditsioner blokining yon tomonida joylashgan yoriqlardan topishingiz mumkin.

Diler nomi :

Xarid sanasi :

XAVFSIZLIK BO'YICHA MUHIM KO'RSATMALAR

JIHOZDAN FOYDALANISHDAN OLDIN BARCHA YO'RIQLARNI O'QIB CHIQING.

Jihozning yaxshi ishlashini ta'minlash hamda xavfli vaziyatlarni oldini olish uchun doimo quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling.

! OGOHLANTIRISH

Ko'rsatmalarga amal qilinmasa, bu jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.

! DIQQAT

Ko'rsatmalarga amal qilinmasa, bu kichik jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga olib kelishi mumkin

! OGOHLANTIRISH

- Malakali bo'lmagan shaxs tomonidan qilingan o'rnatish yoki ta'mir ishlari siz va boshqalar uchun xavfli holatlarga olib kelishi mumkin.
- Ko'llanmadagi ma'lumotlar xavfsizlik qoidalari bilan tanish va tegishli asboblarga va tekshirish moslamalariga ega malakali xizmat ko'rsatish ustasi tomonidan foydalanishi uchun mo'ljallangan.
- Ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarni diqqat bilan o'qib chiqmaslik va ularga amal qilmaslik qurilmaning noto'g'ri ishlashi, moddiy zarar, tan jarohati va/yoki o'limga olib kelishi mumkin.

O'rnatish

- Nosoz yoki to'g'ri kelmaydigan zanjir uzgichdan foydalanmang. Bu qurilmadan alohida zanjirda foydalaning. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Elektr ishlari uchun diler, sotuvchi, malakali elektrik yoki vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Qurilmani o'zingizcha qismlarga ajratmang yoki ta'mirlamang. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Doimo jihozni yerga ulang. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Boshqarish qutisi paneli va qopqog'ini mustahkam o'rninging. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Doimo alohida zanjir va uzgich o'rninging. Simlarni noto'g'ri ulash elektr toki urishi yoki yong'inga olib kelishi mumkin
- To'g'ri keladigan uzgich yoki saqlagichni ishlating. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Quvvat simini o'zgartirmang yoki uzaytirmang. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Jihozni o'zingiz (jihoz egasi) o'rnatmang, yechmang yoki qayta o'rnatmang. Yong'in, portlash, jarohat yoki elektr toki urishi xavfi bor.
- Mahsulotni o'rmandan ochish va o'rnatishda ehtiyot bo'ling. O'tkir qirralar shikast yetkazishi mumkin. Kondensator va bug'latgich korpusi qirralaridan va plastinalaridan ayniqsa ehtiyot bo'ling.
- O'rnatish uchun, doim diler yoki vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Yong'in, portlash, jarohat yoki elektr toki urishi xavfi bor.
- Nuqsonli o'rnatish tayanchiga jihozni o'rnatmang. Tan jarohati, noxush hodisa yoki moddiy zarar yetishiga olib kelishi mumkin.
- O'rnatish joyi vaqt o'tishi bilan yomonlashmasligiga ishonch hosil qiling. Poydevor qulab ketsa, konditsioner tushib ketishi, moddiy zarar, jihozda nosozlik va tan jarohati yetishi mumkin.
- Havо konditsionerini yuqori namlikda va eshik yoki deraza ochiq holatda bo'lganda uzoq vaqt ishlashiga yo'l qo'ymang. Namlik kondensatsiyalanishi va uy mebellarini ho'l qilishi yoki ularga zarar yetkazishi mumkin.

Ishlatish

- Ishlash vaqtida elektr kabelining tortilob qolmasligi yoki shikastlanmasligiga e'tibor bering. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Quvvat kabeli ustiga hech narsa qo'ymang. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Jihozga nam qo'llaringiz bilan tegmang (boshqarmang). Yong'in yoki elektr toki urishi xavfi bor.
- Quvvat kabeli yaqiniga isitgich yoki boshqa jihozlarni qo'ymang. Mazkur talabga rioya qilmaslik elektr toki urishi yoki yong'iniga olib kelishi mumkin.
- Elektr qismlarga suv kirishiga yo'l qo'ymang. Yong'in chiqishi, qurilmaga zarar yetishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Tezda alanga oluvchi gaz yoki tez yonuvchi moddalarni jihoz yonida saqlamang yoki foydalanmang. Yong'in yoki jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Jihozni uzoq vaqt davomida mahkam bekkitilgan joyda foydalanmang. Kislorod yetishmovchiligi kelib chiqishi mumkin.
- Yonuvchan gaz sizib chiqqanda, konditsionerni ishga tushirishdan avval gazni o'chiring va derazani ochib xonani shamollating. Telefondan yoki yoqish/o'chirish tugmasidan foydalanmang. Portlash yoki yong'in xavfi mavjud.
- Konditsionerdan g'alati tovush yoki hid yoki tutun chiqsa. Zanjir uzgichni o'chiring yoki quvvat simini tarmoqdan uzing. Aks holda elektr toki urishi yoki yong'in kelib chiqishi mumkin.
- Dovul va bo'ron vaqtida konditsionerni ishlatishni to'xtating va derazani yopib qo'ying. Agar iloji bo'lsa, kuchli bo'ron yetib kelishidan avval konditsionerni derazadan yechib oling. Aks holda moddiy zarar yetishi, konditsionerda nosozlik yoki elektr tok urish xavfi mavjud.
- Ishlab turgan paytda jhozning havo kirish to'rini ochmang. (Agar blok shunday jihozlangan bo'lsa, elektrostatik filtrga tegmang.) Jismoniy jarohat, elektr toki urishi xavfi yoki jhozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Jihoz suvga botsa (toshqin yoki suvga kirish), vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Yong'in chiqishi yoki elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Jihozga suv kirmasligini ehtiyotini qiling. Yong'in, jhoz nosozligi yoki elektr toki urishi xavfi bor.
- Jihozni pechka va sh.k. narsalar bilan birga ishlatayotganda vaqti-vaqti bilan shamollatib turing. Yong'in chiqishi yoki tok urish xavfi bor.
- Konditsionerni tozalash yoki unga xizmat ko'rsatish vaqtida bosh quvvat manbaini o'chirib qo'ying. Aks holda elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Qurilmadan uzoq vaqt foydalanilmagan vaqtlarda elektr simi vilkasini rozetkadan uzing yoki elektr zanjir uzgichini o'chirib qo'ying. Aks holda mahsulotga zarar yetishi yoki nosozlik kelib chiqishi yoki jhoz bexosdan ishga tushib ketishi mumkin.
- Tashqi blokka oyoq qo'yib chiqilmasligi yoki ustiga biror kim tushib ketmasligini ehtiyotini qiling. Bu tan jarohati yoki konditsionerga shikast yetishiga sabab bo'lishi mumkin.

DIQQAT

O'rnatish

- O'rnatish yoki ta'mirlash ishlaridan so'ng doimo gaz (sovutuvchi agent) sizib chiqish holatlarini tekshiring. Sovutish agenti miqdorining kamligi jhozda nosozlik kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Suvning ko'zda tutilganidek chiqarib to'kilishini ta'minlash uchun drenaj shlangini o'rnatish. Yaxshi ulanmagan joy suv sizib chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Jihozni o'rnatish jarayonida jhozning tekisligini ta'minlang. Vibratsiya yoki suv sizib chiqishini oldini olish uchun.
- Qo'shnilarga tashqi blokdan chiquvchi shovqin va issiq havo noqulayliklar yaratishi mumkin bo'lgan joyga jihozni o'rnatmang. Qo'shnilarga noqulayliklar yaratishi mumkin.

- Jihozni ko'tarish va tashish uchun ikki yoki undan ortiq odam yordamidan foydalaning. Tan jarohatini oldini oling.
- Dengiz shamoli (tuzli shamol) bevosita ta'sir etishi mumkin bo'lgan joyga o'rnatmang. Bu jihazda zanglashga olib kelishi mumkin. Zanglash, ayniqsa, kondensator va bug'latgich qovurg'alarida, jihazning nosozligiga yoki samarasiz ishlashiga olib kelishi mumkin.

Ishlatish

- Konditsionerdan esadigan salqin havo oqimi ostida uzoq vaqt turmang. (Yelvizakda o'tirmang.) Bu sog'lig'ingizga zarar yetkazishi mumkin.
- Konditsionerdan boshqa maqsadlarda, masalan oziq-ovqatlarni, sa'nat asarlari va boshqa narsalarni saqlash uchun foydalanmang. Qurilma faqat sun'iy iqlim hosil qilish vazifasini bajaradi, u mahsulot saqlanadigan sovutgich tizimi emas. Mulkka zarar yetishi yoki mulkni yo'qotish xavfi mavjud.
- Havo oqimi kiradigan yoki chiqarigan tirqishlarni to'sib qo'ymang. Aks holda qurilma nosoz holatga kelishi mumkin.
- Tozalash uchun yumshoq matodan foydalaning. Qattiq tozalash vositalari, erituvchilardan foydalanmang. Plastik qismlarga zarar yetishi, yong'in yoki elektr toki urishi xavfi bor.
- Havo filtrini yetchib olayotganda konditsionerning metal qismlariga tegmang. Ularning qirrali o'tkir! Tan jarohati olish xavfi bor.
- Jihazga (tashqi bloklarga) oyoq yoki boshqa narsalar qo'yilmasin. Mazkur talabga rioya qilmaslik tan jarohati va jihazda nosozlik vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.
- Har doim filtrni mustahkam o'rnatning. Filtrni har ikki haftada bir marta yoki, zarur bo'lsa, undan ko'proq marotaba tozalang. Iflos filtr konditsionerning ishlash samaradorligini pasaytiradi va jihazda nosozlik yoki unga shikast yetishiga olib kelishi mumkin.
- Konditsioner ishlayotgan vaqtda qo'lingiz yoki boshqa predmetlarni havo oqimi kiradigan va chiqadigan teshiklariga tiqmang. Bu qismlar o'tkir qirrali bo'lib, harakatlanuvchi qismlari tan jarohati yetkazishi mumkin.
- Konditsionerdan chiqadigan suvni ichmang. Bu sanitariyaga muvofiq emas va sog'liq bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.
- Jihozni tozalash yoki sozlash vaqtida mustahkam katta stol yoki narvondan foydalaning. Ehtiyot bo'ling, tan jarohatidan saqlanang.
- Masofadan boshqarish pultidagi barcha batareyalarni xuddi shu turdagi yangilari bilan almashtiring. Yangi va eski batareyalarni yoki har xil turdagi batareyalarni aralashtirib joylashtirmang. Yong'in chiqishi yoki portlash xavfi mavjud.
- Batareyalarni zaryadlamang yoki qismlarga ajratmang. Batareyalarni olovga tashlay ko'rmang. Ular yonib yoki portlab ketishi mumkin.
- Agar batareyalardan chiqqan suyuqlik teringiz yoki kiyimingizga tegsa, toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlang. Batareyadan suyuqlik sizib chiqqan bo'lsa, masofadan boshqarish pultidan foydalanmang. Batareyalardagi kimyoviy moddalar kuyish yoki boshqa sog'lik uchun xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Batareya ichidagi kimyoviy moddalar kuyish yoki sog'liqqa zarar yetishiga olib kelishi mumkin. Batareyadan suyuqlik sizib chiqqan bo'lsa, masofadan boshqarish pultidan foydalanmang. Batareyalardagi kimyoviy moddalar kuyish yoki boshqa sog'lik uchun xavfli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Ushbu jihaz jismoniy, sezish yoki aqliy qobiliyati cheklangan yoki tegishli tajriba va bilimga ega bo'lmagan kishilarning (jumladan, bolalarning) undan xavfsiz foydalanish uchun mas'ul kishining nazorati yoki ko'rsatmalarisiz foydalanishi ko'zda tutilmaydi.
- Bolalar jihaz bilan o'ynamasligi uchun ular nazorat qilinishi shart.

MUNDARIJA

2 ENERGIYANI TEJASHGA OID MASLAHATLAR

3 XAVFSIZLIK BO'YICHA MUHIM KO'RSATMALAR

7 ISHLATISHDAN OLDIN

- 7 Ishlatishga tayyorlash
- 7 Foydalanish
- 7 Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish
- 7 Xizmat ko'rsatish

8 MAHSULOT TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

- 8 Qismlar nomi
- 9 Ichki blok boshqaruv elementlari va indikatorlari
- 11 Masofa pultini tayyorlash
- 12 Simsiz masofa pulti

15 ISHLATISHGA OID YO'RIQLAR

<1-usul>

- 15 Ishlatish rejimlari
- 16 Avtomatik quritish funksiyasi
- 16 Havо oqimini sozlash
- 17 Kuchli sovutish, kuchli isitish rejimi
- 17 Havо tezligini sozlash
- 17 Taymer
- 18 Muzni eritish rejimi
- 18 Bolalardan himoya qulfi funksiyasi
- 19 Avtomatik qayta ishga tushirish

<2-usul>

- 20 Sovutish rejimi
- 20 Isitish rejimi
- 20 Havо oqimi yo'nalishini o'rnatish
- 20 Ventilyator tezligini sozlash
- 21 Namsizlantirish rejimi
- 21 Kuchli sovutish/ Isitish rejimi
- 21 Ventilator rejimi
- 21 Oddiy zaxiralash
- 22 Muzni eritish rejimi
- 22 Bolalardan himoya qulfi funksiyasi
- 23 Avtomatik quritish funksiyasi
- 23 Avtomatik qayta ishga tushirish

24 YAXSHI SAQLASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- 24 Ichki blok
- 25 Ishlatishga oid maslahatlar
- 26 Nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar! Vaqt va pulingizni tejang!
- 26 Quyidagi holatlarda darhol xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling

ISHLATISHDAN OLDIN

Ishlatishga tayyorlash

- Jihozni o'rnatish uchun o'rnatuvchi mutaxassisga murojaat eting.
- Alohida belgilangan zanjirdan foydalaning.

Foydalanish

- Bevosita havo oqimi ta'siri ostida uzoq muddat o'tirish sog'lik uchun zararli bo'lishi mumkin. Uzoq vaqt davomida insonlar, uy hayvonlari yoki o'simliklarni bevosita havo oqimi yo'nalishi ta'siri ostida qolishiga yo'l qo'ymang.
- Kislodor tanqisligi ehtimoli tufayli gaz plitasi yoki boshqa isitish jihozlari bilan bir vaqtda konditsionerdan foydalanganda xonani shamollating.
- Konditsionerdan boshqa ko'zda tutilmagan maqsadlarda (masalan, jihozlar, oziq-ovqat, hayvon, o'simlik, yoki san'at asarlarini saqlash joyi sifatida) foydalanmang. Aks holda, qurilma qismlariga zarar yetishi mumkin.

Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish

- Filtrni yechayotganda blokning metal qismlariga tegmang. O'tkir metal qirralarga tegib ketilganda tan jarohati yetishi mumkin.
- Konditsioner ichki qismini suv bilan tozalamang. Suv tegsa izolatsiyasiga zarar yetishi mumkin, bu esa elektr toki urishiga olib keladi.
- Jihozni tozalash vaqtida jihoz quvvatdan uzilgan va saqlagich o'chirilganligiga ishonch hosil qiling. Jihoz ishlayotganda ventilator parragi juda katta tezlikda aylanadi. Jihoz ichki qismlarini tozalayotgan bexosdan jihozda quvvat yoqib yuborilsa, jarohat olish mumkin.

Xizmat ko'rsatish


Ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish uchun vakolatli xizmat ko'rsatish dileriga murojaat eting.

MAHSULOT TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Qismlar nomi


Ichki blok

- 1 Chapga/o'ngga havo oqimini boshqarish jalyuzasi
- 2 Yuqoriga/pastga havo oqimini boshqarish jalyuzasi
- 3 Display paneli
- 4 Havo filtri
- 5 Havo kirish teshigi
- 6 Boshqaruv qutisi




Ichki blok boshqaruv elementlari va indikatorlari

Issiqlik nasosi



1. Taymer
2. Muzdan eritish funksiyasi indikatorlari
3. Sovutish rejimi indikatorlari
4. Isitish rejimi indikatorlari
5. Xona harorati / O'rnatilgan harorat ko'rsatilishi
6. Ichki blok ventilyatori indikatorlari
7. Ishga tushirish/To'xtatish tugmasi
8. Ish rejimini tanlash tugmasi
9. Xona haroratini sozlash tugmasi
10. Ichki blok ventilyatori tezligi tugmasi
11. Signal qabul qiluvchi datchik

Faqat sovutish




1. Taymer
2. Namsizlantirish rejimi indikator
3. Sovutish rejimi indikator
4. Ventilyator rejimi indikator
5. Xona harorati / O'rnatilgan harorat ko'rsatilishi
6. Ichki blok ventilyatori indikator
7. Ishga tushirish/To'xtatish tugmasi
8. Ish rejimini tanlash tugmasi
9. Xona haroratini sozlash tugmasi
10. Ichki blok ventilyatori tezligi tugmasi
11. Signal qabul qiluvchi datchik


Masofa pultini tayyorlash

Qanday qilib devorga o'rnatiladi

- 1 Burama mixlar yordamida pult tutqichini devorga qotiring yoki tutqichni ichki blok yon tomoniga o'rnatning.




- 2 Masofa pultini tutqichga joylashtirish.




Batareyalarni qanday joylashtirish kerak

- 1 Masofa pulti orqasidan qopqog'ini oling.
 - Strelka yo'nalishi bo'yicha qopqoqni suring.




- 2 Ikkita batareyani joylashtiring.

- (+) va (-) tomonlari to'g'ri qo'yilganligiga ishonch hosil qiling.
- Ikkita batareya ham yangiligiga ishonch hosil qiling.



- 3 Qopqoqni qayta joyiga qo'ying.

- Qopqoqni surib joyiga qaytib o'rnatning.



- Zaryadlangan batareyalarni ishlatmang, bunday batareyalar standart quruq batareyalardan shakli, o'lchamlari va ishlashi bilan ajralib turadi.


- Uzoq vaqt ishlatgandan so'ng agar masofa pulti yaxshi ishlamay qolsa, batareyalarini yangisiga almashtiring.

⚠️ DIQQAT

- Masofa pultini uzoq vaqt ishlatmay qo'yganda, ichidagi batareyalardan suyuqlik oqib, oqibatda qurilmada nosozlik kelib chiqishi mumkin, shu bois, barcha batareyalarni olib qo'ying.
- Batareyalarni (AAA) almashtirganda, har ikkisini yangisiga almashtiring va agar batareyalarni (AAA) almashtirgandan keyin ham masofa pulti yaxshi ishlamasa, texnik xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Xizmatini o'tagan batareyalarni bo'laklar bo'lmang yoki zaryadlamang, ularni olov yoki issiq havoli joylarga tashlab yubormang. Portlash xavfi yuzaga keladi.

Simsiz masofa pulti

<1-usul>



Boshqaruv paneli	Tavsifi
	Havo konditsionerini yoqishingiz va o'chirishingiz mumkin.
	Siz kerakli havo tezligini osongina sozlashingiz mumkin.
	Siz tugmalarini bosish orqali kerakli haroratni sozlashingiz mumkin.
Mode	Siz tegishli tugmani bosish orqali kerakli ishlatish rejimini tanlashingiz mumkin. • Ishlatish rejimlari: Sovutish, isitish, namsizlantirish, havo purkash, SI
	U havo konditsioneri o'chirilgan holatda havo konditsioneri ichida qolgan namlikni avtomatik tarzda ketkazadi.
	Siz yuqoriga/pastga aylantirish yoki chapga/o'ngga aylantirishni o'rnatishingiz mumkin.
	U xona ichini tezlik bilan sovutishi mumkin. • Agar siz kuchli sovutishni tanlamoqchi bo'sangiz, sovutish tugmasini bosgandan keyin quvvat rejimi tugmasini bosing. • Agar siz kuchli isitishni tanlamoqchi bo'sangiz, isitish tugmasini bosgandan keyin quvvat rejimi tugmasini bosing.
	Quvvat tejash effektini olib kelishingiz mumkin. • Bu rejim tanlanganda quvvati qisqarishi mumkin.
	Xona ichidagi haroratni tekshirishingiz mumkin. • Xona harorati 3 soniya ko'rsatib turiladi va keyin avvalgi ekranga qaytadi.
	Qulf funksiyasi o'rnatilganida mahsulotdagi qaysi tugma bosilganidan qat'iy nazar funksiya o'zgar olmaydi. • Ushbu funksiya yoqilgan bo'lganda, displeydagi tugma qulflanadi va istalgan tugmani bosganingizda havo konditsionerining displey panelida «CL» yozuvi chiqib turadi. • Agar siz bu tugmani 5 soniya bosib tursangiz, harorat birligini (°C/°F) o'zgartirishingiz mumkin.
	YOQISH ni buyurtma qilish: Havo konditsioneri o'rnatilgan vaqtda avtomatik tarzda yonadi. • Agar siz bu tugmani 3 soniya bosib tursangiz, joriy vaqtni o'rnatishingiz mumkin.
	O'CHIRISH ni buyurtma qilish: Havo konditsioneri o'rnatilgan vaqtda avtomatik tarzda o'chadi.
	U o'rnatilgan buyurtmani bekor qiladi.
	tugmalarini bosish orqali kerakli buyurtma vaqtini o'rnatish.
SET/CLEAR	Siz buyurtmalarni o'rnatishingiz yoki bekor qilishingiz mumkin.

*Modelga bog'liq ravishda qo'llanilgan funksiyalar farq qilishi mumkin.


Masofa pulti bilan ishlash

- Polga qo'yiladigan turdagi konditsionerdagi signal qabul qilgichga pultni to'g'rilaysiz.
- Boshqaruv pulti signali taxminan 7 metrgacha uzoqlikdagi masofadan qabul qilinishi mumkin.
- Masofa pulti va signal qabul qiluvchi sensor o'rtasida hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Masofa pultini tushirib yoki irg'itib yubormang.
- Masofa pultini to'g'ri quyosh nuri tushadigan joyga yoki isitish qurilmasi yoki boshqa biror issiqlik manbai yaqiniga qo'ymang.

IZOH

Ayrim tugmalardan model funksiyalaridan tomonidan foydalanib bo'lmaydi.

Faqat sovutish



Boshqaruv paneli	Tavsif
	Masofa pulti ish indikator
	Yoqish/o'chirish tugmasi: Shu tugmani bosganda, konditsioner ishga tushadi, yana shu tugmani bosganda, konditsioner to'xtaydi.
	Ichki blok ventilyatori tezligi tugmasi: Maqbul ventilyator tezligini tanlash uchun:
	Haroratni o'rnatish tugmasi
	Sovutish rejimi tugmasi
	Avtomatik quritish tugmasi: Ushbu funksiyani yoqqandan so'ng, konditsioner o'chishidan oldin ichki blokda bug'latgich avtomatik tarzda quritiladi.
	Namsizlantirish rejimi tugmasi: Yomg'irli mavsumda yoki yuqori namlik sharoitida namlikni samarali ketkazadi.
	Bolalardan himoya qulfi tugmasi: Ushbu funksiya yoqilgan bo'lganda, displeydagi tugmalar qullanadi va konditsioner displey panelida "CL" yozuvi chiqib turadi.
	Ventilator rejimi tugmasi
	Havo oqimi yo'nalishi tugmasi (yuqoriga/pastga, chapga/o'ngga): Havo oqimi yo'nalishini vertikal yoki gorizontal holatga sozlang.
	Kuchli sovutish rejimi tugmasi: Konditsioner kuchli sovutish rejimida ishlaydi.
	Yoqish/o'chirish taymerini o'rnatish tugmasi: Konditsioner ishga tushadigan yoki to'xtaydigan vaqtni o'rnatish.
	Taymerni bekor qilish tugmasi

Masofa pulti bilan ishlash



- Polga qo'yiladigan turdagi konditsionerdagi signal qabul qilgichga pultni to'g'rirlaysiz.
- Konditsioner nosoz ishlashini oldini olish uchun signal qabul qiluvchi datchikka ta'sir etuvchi kuchli yorug'likni to'sing. (masalan: elektron tezkor ishga tushish moslamasi, avariyaviy uzatma mayoq, inverter tipli lyuminiscent chiroq)
- Masofa pulti va signal qabul qiluvchi sensor o'rtasida hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Masofa pultini tushirib yoki irg'itib yubormang.
- Masofa pultini to'g'ri quyosh nuri tushadigan joyga yoki isitish qurilmasi yoki boshqa biror issiqlik manbai yaqiniga qo'ymang.

ISHLATISHGA OID YO'RIQLAR

<1-usul>

Ishlatish rejimlari









Sovutish, avtomatik, namsizlantirish, isitish, havo purkash ishlatish rejimlari

- Masofadan boshqaruv pultidagi  tugmasini bosish orqali havo konditsionerini yoqing.
-  tugmasini qayta-qayta bosish orqali kerakli ishlatish rejimini tanlang.
(Ishlatish rejimi sovutish, avtomatik, namsizlantirish, isitish va havo purkash tartibida o'zgaradi. Faqat sovutishli modelda isitish funksiyasi ishlaymaydi.)


IZOH

3 daqiqalik kechikish funksiyasi nima?

Kompressorni himoyalovchi funksiya sababli sovutish rejimini o'chirgandan so'ng, jihozni ishlatayotganda, sovuq shamol biroz vaqt chiqmay turadi. Kompressor 3 daqiqadan so'ng ishga tushgandan so'ng, sovuq shamol esa boshlaydi.



Ishlatish rejimlari	Tugmaning bayoni
Sovutish	Havo chiqarish tirqishidan sovuq havo purkaladi. <ul style="list-style-type: none"> Sovutish rejimi eng asosiy ishlatish rejimidir. Siz haroratni boshqarish tugmalarini (, ) bosish orqali kerakli haroratni 18°C bilan 30°C o'rtasidagi diapazonda o'rnatishingiz mumkin.
Avtomatik	Havo konditsioneri avtomatik tarzda xona ichi uchun mos bo'lgan haroratda havo purkaydi. <ul style="list-style-type: none"> Faqat sovutish: Siz haroratni boshqarish tugmalarini (, ) bosish orqali -2 bilan 2 o'rtasidagi diapazon bo'ylab kerakli qiymatni o'rnatishingiz mumkin. - Qiymat -2 ga qanchalik yaqin bo'lsa, kerakli harorat shunchalik balandroq bo'ladi va qiymat 2 ga qanchalik yaqin bo'lsa, kerakli harorat shunchalik pastroq bo'ladi. Sovutish va isitish uchun: Siz  va  haroratni boshqarish tugmalarini bosish orqali kerakli haroratni 18°C bilan 30°C o'rtasidagi diapazon bo'ylab o'rnatishingiz mumkin.
Namsizlantirish	Siz namlik yuqori bo'lgan kunlarda yashash qulay bo'lishi uchun xona ichidagi namlikni ketkazishingiz mumkin. <ul style="list-style-type: none"> Namsizlantirish uchun alohida kerakli harorat sozlamasi mavjud emas. Havo tezligi quyi darajadan boshlanadi va siz uni zarur hollarda kerakli tezlikka sozlashingiz mumkin.
Ishitish	Havo chiqarish tirqishidan issiq havo purkaladi. <ul style="list-style-type: none"> Ishitish rejimidan faqat sovutish va isitish rejimlariga ega bo'lgan havo konditsionerida foydalanish mumkin. Siz haroratni boshqarish tugmalarini (, ) bosish orqali kerakli haroratni 16°C bilan 30°C o'rtasidagi diapazonda o'rnatishingiz mumkin.
Havo purkash	U xona ichidagi haroratdagi havoni turkash orqali xona ichidagi havoni aylanatiradi. <ul style="list-style-type: none"> Havo purkash rejimi uchun alohida kerakli harorat sozlamasi mavjud emas. Havo tezligi yuqori darajadan boshlanadi va siz uni zarur hollarda kerakli tezlikka sozlashingiz mumkin.


Avtomatik quritish funksiyasi

- 1 Ichki blokdagi tugma yoki masofadan boshqaruv pulti yordamida avtomatik quritish funksiyasini o'rnatish/bekor qilish mumkin.
- 2 Ushbu funksiyani o'rnatgandan so'ng  tugmasini bossangiz, ichki blokdagi bug'latgich avtomatik tarzda quritiladi va blok display panelida 00 dan 99 gacha bo'lgan sanoq aks etadi.
- 3 Display panelida sanoq 99 ga yetganda, konditsioner avtomatik tarzda o'chadi.

* Boshlang'ich holatda standart sozlama sifatida avtomatik quritish funksiyasi faollashtirilgan holatda bo'ladi.

Avtomatik quritish funksiyasini yoqish uchun



Agar ichki blokdagi tugmalardan foydalanilsa,  tugmasi va  tugmasini bir vaqtda 3 soniya bosib turing.


Agar Faqat sovutish modeli uchun masofadan boshqaruv pulti tugmalaridan foydalanilsa,  tugmasini bosing.

Konditsioner bir marta tovushli signal beradi va uning display panelida «SC» yozuvi chiqadi.

Avtomatik quritish funksiyasi yoqiladi.

Avtomatik quritish funksiyasini o'chirish uchun

Agar ichki blokdagi tugmalardan foydalanilsa,  tugmasi va  tugmasini bir vaqtda 3 soniya bosib turing.




Agar masofadan boshqaruv pulti tugmalaridan foydalanilsa,  tugmasini bosing.

Konditsioner ikki marta tovushli signal beradi va avtomatik quritish funksiyasi o'chadi.




Havo oqimini sozlash

Kerakli havo oqimi yo'nalishini osongina sozlash mumkin.



Yuqoriga/pastga havo oqimi yo'nalishini boshqarish

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2  tugmasini bosing va jalyuzalar tepaga va pastga chayqaladi.
- 3 Gorizontall jalyuzani kerakli havo oqimi yo'nalishida sozlash uchun yana  tugmani bosing.

Chapga/o'ngga havo oqimi yo'nalishini boshqarish



- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2  tugmasini bosing va jalyuzalar chap va o'ngga chayqala boshlaydi.
- 3 Press  button again to set the vertical louver at the desired airflow direction.

<Havo oqimi yo'nalishini sozlash jadvali>

Timsol	Tavsifi
	Yuqoriga/pastga : kurak yuqoridan pastga avtomatik tarzda uzluksiz harakatlanadi
	Chapga/o'ngga : kurak chapdan o'ngga avtomatik tarzda uzluksiz harakatlanadi



Kuchli sovutish, kuchli isitish rejimi

Uni isitish yoki sovutish ishlatish rejimi sifatida o'rnatilganida o'rnatish mumkin.

- 1  tugmasini bosib.
 - Sovutish ishlatish rejimi sifatida tanlanganida kuchli sovutish rejimi faollashtiriladi.
 - Isitish ishlatish rejimi sifatida tanlanganida kuchli isitish rejimi faollashtiriladi.
- 2 Yana  tugmasini bosganingizda kuchli sovutish yoki kuchli isitish funksiyasi o'chiriladi.




Havo tezligini sozlash

Siz havo chiqarish tirqishi uchun havo tezligini sozlashingiz mumkin.

- 1 Masofadan boshqaruv pultidagi  tugmasini bosish orqali havo konditsionerini yoqing.
- 2  tugmasini qayta-qayta bosish orqali kerakli havo tezligini tanlang.
 - Ventilyator tezligini past, o'rtacha, yuqori, o'ta yuqori holatlardan iborat to'rt pog'onadan biriga sozlashingiz mumkin. Har safar tugma bosilganda ventilatorning tezlik rejimi o'zgaradi.
 - Modeliga bog'liq ravishda havo tezligi bosqichlari farq qilishi mumkin.
 - Havo oqimi tezligini sovutish, namsizlantirish, esish va avtomatik ishlash rejimlarida tanlash mumkin.

Taymer

Taymerni o'chirishga o'rnatish


- 1  tugmasini 3 soniya bosib turadi.
- 2 Kerakli vaqt o'rnatilgunicha  yoki  tugmasini bosib.
 - Agar siz tugmani uzoqroq vaqt bosib tursangiz, vaqt 10 daqiqa qadamlar bilan tezroq o'zgaradi
- 3 **SET/CLEAR** tugmasini bosib.



IZOH

A.M. va P.M. indikatorini tekshiring.

Taymerni yoqishga o'rnatish

- 1 Taymerni yoqish yoki o'chirish uchun ON tugmasini bosib





- 2 Kerakli vaqt o'rnatilgunicha  yoki  tugmasini bosib
- 3 **SET/CLEAR** tugmasini bosib.

Taymerni o'chirishga o'rnatish


- 1 Taymerni yoqish yoki o'chirish uchun OFF tugmasini bosib.




- 2 Kerakli vaqt o'rnatilgunicha  yoki  tugmasini bosib
- 3 **SET/CLEAR** tugmasini bosib.

Taymer sozlamasini bekor qilish

Siz barcha taymer sozlamalarini bekor qilishingiz mumkin


-  tugmasini bosib.


IZOH

- Agar siz aniq bir taymer sozlamasini bekor qilmoqchi bo'lsangiz, Uyqu taymeri, Yoqish taymeri yoki O'chirish taymerini yoqish yoki o'chirish uchun har bir taymer tugmasini bosib. Keyin masofadan boshqaruv pultini signal qabul qiluvchiga qaratgan holda  tugmasini bosib.
- Havo konditsioneridagi taymer chirog'i va displey o'chadi.

Muzni eritish rejimi

Issiqlik nasosi

- 1 Muzdan eritish funksiyasi ishlayotganda, ichki blok displeyida  aks etadi.



- 2 Isitish rejimi ishlayotgan vaqtda, agar tashqaridagi harorat past bo'lsa va namlik yuqori bo'lsa, tashqi blokda muz hosil bo'lganligi sababli isitish quvvati pasayadi, shu bois, muzdan eritish funksiyasi yordamida konditsioner muzdan tozalanadi.
- 3 Ichki va tashqi blok ventilyatori avtomatik tarzda to'xtatilganda va muzdan eritish ishi yakunlanganda, isitish rejimi uchun dastlabki isitib olish sikli avtomatik tarzda ishga tushadi.






* Bir necha daqiqadan so'ng isitish rejimi ishga tushadi.

IZOH

Isitish jarayoni oldidan boshlang'ich isitish funksiyasi nima?

- Isitish rejimi vaqtida, bino ichidagi quvur yo'li harorati 22 °C dan oshmaguncha ichki blok ventilyatori ishga tushmaydi, shu bois, ushbu funksiyaning vazifasi xona ichiga sovuq havo oqimini esishini oldini olishdan iborat.
- Isitish oldidan boshlang'ich isitish jarayoni davomida isitish rejimini ishga tushirib bo'lmaydi.
- Muzni eritish vaqtida, tashqari tomonda bug' hosil bo'lishi mumkin, bu nosozlik holati emas, balki bu muzni yo'qotish funksiyasi hisoblanadi.

Bolalardan himoya qulfi funksiyasi

- 1  va yuqori  tugmasini birgalikda 3 soniya bosib turing. Yoki masofa pultidagi  tugmasini bosib.
- 2 Bolalardan himoya qulfi funksiyasi ishlayotgan vaqtda,
 - Displey panelidagi istalgan tugmani bosganda, displeyda o'sha zahoti "CL" yozuvi chiqadi, bu displey paneli qulflanganligini anglatadi.
 - Ichki blok displey panelidagi barcha tugmalar ishlamaydi.
 - Ammo pultdagi tugmalar ishlaydi.
- 3 Yana  va yuqori  tugmasini birgalikda 3 soniya bosib turing. Konditsioner tovushli signal beradi va bolalardan himoya qulfi funksiyasi o'chadi.



Avtomatik qayta ishga tushirish

Elektr ta'minotidagi uzilish yoki boshqa sabablarga ko'ra jihoz elektr quvvati ta'minoti uzilib qolganligi bois jihoz ishlashi to'xtab qolgandan so'ng, yana quvvat ta'minoti tiklanib, jihoz yoqilganda, avtomatik qayta ishlatish funksiyasi ishga tushib, jihozdagi sozlamalarni eslaydi.

- Quvvat ta'minoti tiklangandan so'ng, tashqi blok 3 daqiqa ichida ishga tushadi.

1 Ichki blokda tugma yordamida avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasini yoqish/bekor qilish mumkin.

* Boshlang'ich standart sozlamalarda, avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yoqilgan holatda bo'ladi.

Avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasini bekor qilish uchun


⏻, ⬆️, ⬇️, ⚙️ (4 ta tugma) tugmalarini birgalikda 3 soniya bosib turing.

Konditsioner tovushli signal beradi va avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi bekor qilinadi.

Avtomatik qayta ishga tushirish funksiyani yoqish uchun




Funksiyani bekor qilgandan so'ng, ⏻, ⬆️, ⬇️, ⚙️ (4 ta tugma) tugmalarini birgalikda 3 soniya bosib turing.

Konditsioner tovushli signal beradi va avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yoqiladi.



<2-usul>

Sovutish rejimi




- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2 Sovutish rejimini tanlash uchun  tugmasini bosing.
 - Ushbu ish rejimi ishlashini bekor qilish uchun  tugmani yana bir bor bosing.
- 3 (^ v) tugmalar yordamida maqbul haroratni tanlang.
 - Agar foydalanuvchi o'rnatmoqchi bo'lgan harorat xona haroratidan yuqori bo'lsa, sovutish rejimi ishlamaydi.
 - Haroratni xona haroratiga qaraganda pastroq darajaga o'rnatish.
 - O'rnatilgan harorat diapazoni: 18 °C~30 °C.

IZOH

3 daqiqalik kechikish funksiyasi nima?

Kompressorni himoyalovchi funksiya sababli sovutish rejimini o'chirgandan so'ng, jihazni ishlatayotganda, sovuq shamol biroz vaqt chiqmay turadi. Kompressor 3 daqiqadan so'ng ishga tushgandan so'ng, sovuq shamol esa boshlaydi.

Isitish rejimi**Issiqlik nasosi**

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2  tugmani bosib isitish rejimini tanlang.
 - Bu rejim ishlashini bekor qilish uchun  tugmani yana bir bor bosing.
- 3 (^ v) tugmalar yordamida maqbul haroratni tanlang.
 - Agar foydalanuvchi o'rnatmoqchi bo'lgan harorat xona haroratidan past bo'lsa, isitish rejimi ishlamaydi.
 - Haroratni xona haroratiga qaraganda yuqoriroq darajaga o'rnatish.
 - O'rnatilgan harorat diapazoni: 16 °C~30 °C.

IZOH




Boshlang'ich isitish funksiyasi

Tashqarida harorat past bo'lgan sharoitda isitish rejimini ishga tushirganda, konditsionerda havo oqimi dastlab bir necha daqiqa esmay turadi, bu vaqtda muzdan eritish funksiyasi indikatorini yonib turadi. Bu boshlang'ich isitib olish bosqichi bo'lib, bir necha soniyalardan so'ng konditsionerda issiq havo oqimi esa boshlaydi.




Havo oqimi yo'nalishini o'rnatish

Kerakli havo oqimi yo'nalishini osongina sozlash mumkin.



Yuqoriga/pastga havo oqimi yo'nalishini boshqarish

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2  tugmani bosing va yo'naltirigich kuraklar yuqoriga va pastga tebranadi.
- 3 Gorizontall kurakni maqbul havo oqimi yo'nalishiga sozlash uchun yana  tugmani bosing.



Chapga/o'ngga havo oqimi yo'nalishini boshqarish

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2  tugmani bosing va yo'naltirigich jalyuzalar chapga va o'ngga tebranadi.
- 3 Vertikal jalyuzalarni maqbul havo oqimi yo'nalishiga sozlash uchun yana  tugmani bosing.

<Havo oqimi yo'nalishini sozlash jadvali>

Timsol	Tavsif
	Yuqoriga-Pastga: Kurak avtomatik ravishda to'xtovsiz yuqoriga va pastga tebranadi
	Chapga-o'ngga: Jalyuza avtomatik ravishda to'xtovsiz chapga va o'ngga tebranadi



Ventilyator tezligini sozlash

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosing.
- 2 Ventilyator tezligini tanlash uchun  tugmani bosing.
 - Ventilyator tezligini to'rt pog'onada, ya'ni, past, o'rtacha, yuqori, o'ta yuqori holatlardan biriga sozlashingiz mumkin. Har safar tugma bosilganda ventilyatorning tezlik rejimi o'zgaradi.
 - Havo oqimi tezligini sovutish, isitish, namsizlantirish, esish va avtomatik ishlash rejimlarida tanlash mumkin.

Namsizlantirish rejimi



Faqat sovutish

Yomg'irli mavsumlar yoki yuqori namlik hukmron bo'lgan iqlim sharoitlarida havoni samarali namsizlantirish uchun havoni namsizlantirish va sovutish rejimlarini bir vaqtda ishlatish mumkin.

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosib.
- 2  tugmani bosib namsizlantirish rejimini tanlang.
 - Displeyda o'rnatilgan harorat 5 soniya aks etgandan so'ng xona harorati ko'rsatiladi.




Kuchli sovutish/ Isitish rejimi

Kuchli sovutish/isitish rejimi qisa vaqt ishlaydi.




- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmasini bosib.
- 2  tugmani bosib kuchli sovutish/isitish rejimini tanlashingiz mumkin.
 - Sovutish/namsizlantirish rejimi ishlayotgan vaqtda kuchli (sovutish/isitish) tugmasi bosilsa, kuchli sovutish rejimi ishga tushadi. Kuchli sovutish rejimida o'rnatilgan harorat 18 °C ga sozlanadi va gorizontaal jalyuza eng yuqori holatga o'rnatiladi.
 - Isitish rejimi ishlayotgan vaqtda kuchli (sovutish/isitish) tugmasi bosilsa, kuchli isitish rejimi ishga tushadi. Kuchli isitish rejimida o'rnatilgan harorat 30 °C ga sozlanadi va gorizontaal jalyuza eng past holatga o'rnatiladi.

Ventilator rejimi

Faqat sovutish

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmani bosib.
- 2 Xona havosini o'zini aylantirish uchun  tugmani bosib.
 - Bu rejim ishlashini bekor qilish uchun  tugmani yana bir bor bosib.
 - Ventilator rejimi ishlayotgan vaqtda, tashqi ventilator va kompressor ishlamaydi.
 - Ventilyator rejimi ishlayotgan vaqtda ichki blok displey panelida ventilyator rejimi indikator, xona harorati indikator va ventilyator tezligi indikator aks etadi.


Issiqlik nasosi

- 1 Ichki blokni yoqish uchun  tugmani bosib.
- 2 Xona havosini o'zini aylantirish uchun masofa pultidagi  tugmani bosib.
 - Bu rejim ishlashini bekor qilish uchun  tugmani yana bir bor bosib.
 - Ventilator rejimi ishlayotgan vaqtda, tashqi ventilator va kompressor ishlamaydi.
 - Ventilyator rejimi ishlayotgan vaqtda ichki blok displey panelida xona harorati indikator va ventilyator tezligi indikator aks etadi.

Oddiy zaxiralash


Jihozni yoqish zaxiralash rejimi

Ushbu funktsiya oldindan belgilab qo'yilgan vaqtda konditsionerni ishga tushiradi.


- 1 Konditsioner o'chirilgan holatda bo'lganda,  tugma yordamida konditsioner ishga tushish vaqtini o'rnatib.
 - Ko'pi bilan 24 soatgacha bo'lgan vaqtni tanlash mumkin.

Jihozni o'chirish zaxiralash rejimi

Ushbu funktsiya oldindan belgilab qo'yilgan vaqtda konditsionerni o'chiradi.


- 1 Konditsioner yoqilgan holatda bo'lganda,  tugma yordamida konditsioner o'chish vaqtini o'rnatib.
 - 7 soatgacha bo'lgan vaqtni tanlash mumkin.


IZOH

Ishga tushish yoki o'chish vaqti o'rnatgandan so'ng, agar tegishli o'rnatish tugmasini bossangiz, konditsioner ishga tushish yoki o'chish vaqtigacha qolgan vaqt displeyda aks etadi va agar yana shu tugma bosilsa, o'rnatilgan taymer sozmalasi bekor qilinadi. ( bilan bir xil funktsiya) Sozlama bo'yicha qolgan vaqt 1 soatlik birliklarda aks etadi.

Muzni eritish rejimi

Issiqlik nasosi

- 1 Muzdan eritish funksiyasi ishlayotganda, ichki blok displeyida  aks etadi.



- 2 Isitish rejimi ishlayotgan vaqtda, agar tashqaridagi harorat past bo'lsa va namlik yuqori bo'lsa, tashqi blokda muz hosil bo'lganligi sababli isitish quvvati pasayadi, shu bois, muzdan eritish funksiyasi yordamida konditsioner muzdan tozalanadi.
- 3 Ichki va tashqi blok ventilyatori avtomatik tarzda to'xtatilganda va muzdan eritish ishi yakunlanganda, isitish rejimi uchun dastlabki isitib olish sikli avtomatik tarzda ishga tushadi.






* Bir necha daqiqadan so'ng isitish rejimi ishga tushadi.


IZOH

Isitish jarayoni oldidan boshlang'ich isitish funksiyasi nima?


- Isitish rejimi vaqtida, bino ichidagi quvur yo'li harorati 22 °C dan oshmaguncha ichki blok ventilyatori ishga tushmaydi, shu bois, ushbu funksiyaning vazifasi xona ichiga sovuq havo oqimini esishini oldini olishdan iborat.
- Isitish oldidan boshlang'ich isitish jarayoni davomida isitish rejimini ishga tushirib bo'lmaydi.
- Muzni eritish vaqtida, tashqari tomonda bug' hosil bo'lishi mumkin, bu nosozlik holati emas, balki bu muzni yo'qotish funksiyasi hisoblanadi.

Bolalardan himoya qulfi funksiyasi

- 1  va yuqori  tugmasini birgalikda 3 soniya bosib turing. Yoki masofa pultidagi  tugmasini bosib.
- 2 Bolalardan himoya qulfi funksiyasi ishlayotgan vaqtda,
 - Displey panelidagi istalgan tugmani bosganda, displeyda o'sha zahoti "CL" yozuvi chiqadi, bu displey paneli qulflanganligini anglatadi.
 - Ichki blok displey panelidagi barcha tugmalar ishlamaydi.
 - Ammo pultdagi tugmalar ishlaydi.
- 3 Yana  va yuqori  tugmasini birgalikda 3 soniya bosib turing. Konditsioner tovushli signal beradi va bolalardan himoya qulfi funksiyasi o'chadi.






Avtomatik quritish funksiyasi




- 1 Ichki blokda tugma yoki masofa pulti yordamida avtomatik quritish funksiyasini yoqish/bekor qilish mumkin.
- 2 Ushbu funksiyani yoqqandan so'ng  tugmani bossangiz, ichki blokda bug'latgich avtomatik tarzda quritiladi va blok displey panelida 00 dan 99 gacha bo'lgan sanoq aks etadi.
- 3 Displey panelida sanoq 99 ga yetganda, konditsioner avtomatik tarzda o'chadi.


* Boshlang'ich holatda standart sozlama sifatida avtomatik quritish funksiyasi o'chiq holatda bo'ladi.

Avtomatik quritish funksiyasini yoqish uchun

Agar ichki blokda tugmalardan foydalanilsa,  tugma va  tugmani birgalikda 3 soniya bosib turing. Agar masofa pulti tugmalaridan foydalanilsa, konditsioner modeli faqat faqat sovutish modeli bo'lsa,  tugmani bosib. Konditsioner bir marta tovushli signal beradi va uning displey panelida "SC" yozuvi chiqadi. Avtomatik quritish funksiyasi yoqiladi.

Avtomatik quritish funksiyasini o'chirish uchun

Agar ichki blokda tugmalardan foydalanilsa,  tugma va  tugmani birgalikda 3 soniya bosib turing. Agar masofa pulti tugmalaridan foydalanilsa,  tugmani bosib. Konditsioner ikki marta tovushli signal beradi va avtomatik sovutish funksiyasi o'chadi.



Avtomatik qayta ishga tushirish





Elektr ta'minotidagi uzilish yoki boshqa sabablarga ko'ra jihoz elektr quvvati ta'minoti uzilib qolganligi bois jihoz ishlashi to'xtab qolgandan so'ng, yana quvvat ta'minoti tiklanib, jihoz yoqilganda, avtomatik qayta ishlatish funksiyasi ishga tushib, jihozda sozlamalarni eslaydi.

- Quvvat ta'minoti tiklangandan so'ng, tashqi blok 3 daqiqa ichida ishga tushadi.

- 1 Ichki blokda tugma yordamida avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasini yoqish/bekor qilish mumkin.





* Boshlang'ich standart sozlamalarda, avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yoqilgan holatda bo'ladi.

Avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasini bekor qilish uchun


, , ,  (4 ta tugma) tugmalarini birgalikda 3 soniya bosib turing.

Konditsioner tovushli signal beradi va avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi bekor qilinadi.

Avtomatik qayta ishga tushirish funksiyani yoqish uchun

Funksiyani bekor qilgandan so'ng, , , ,  (4 ta tugma) tugmalarini birgalikda 3 soniya bosib turing.

Konditsioner tovushli signal beradi va avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yoqiladi.



YAXSHI SAQLASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Ichki blok

To'r, korpus va boshqaruv pulti

- Tozalashdan avval tizimni o'chiring, tozalash uchun yumshoq, quruq lattadan foydalaning. Abraziv yoki oqartiruvchi vositalardan foydalanmang.

IZOH

Ichki blokni tozalashdan oldin u rozetkadan uzilgan bo'lishi kerak.

Havo filtrlari

Old panjara ortidagi havo filtrlari har 2 haftada yoki zarur bo'lgan hollarda undan kamroq muddatda bir marta tekshirilishi va tozalab turilishi kerak.

- Quyidagilarni hech qachon ishlatmang:

Harorati 40 °C dan balandroq bo'lgan issiq suv. Bu konditsionerining deformatsiyalanishi va/yoki rangining o'chishiga olib kelishi mumkin.

Uchuvchan moddalar.
Konditsioner yuzasini shikastlashi mumkin.




Filtrni tozalash

Uni haftada bir marta tozalang.

- 1 Havo filtrlarini yechib oling.
- Ilmog'idan ushlang va filtrni olish uchun uni oldinga biroz torting.

⚠️ DIQQAT

Havo filtrini olish kerak bo'lganda ichki blokning metal qismlariga tegmang. Bu jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



- 2 Havo filtridagi kirlarni changyutgich yordamida yoki suvda yuvish orqali ketkazing.
- Agar kir ketmasa, mo'tadil kir yuvish vositasi bilan iliq suvda yuving.
- Agar qaynoq suvdan (40 °C yoki undan yuqori) foydalanilsa, u deformatsiyaga uchrashi mumkin.
- 3 Suv bilan yuvgandan keyin soya joyda yaxshilab quriting.
- Havo filtrini quritayotganda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari yoki olov issiqligi ta'siri ostiga qo'ymang.



- 4 Havo filtrini o'rnatang.

Kondisionerdan uzoq vaqt davomida foydalanilmaydigan hollarda.

- 1 Konditsionerni quyidagi sozlamalarda 2-3 soat ishlating.
 - Ishlatish turi: Ventilator rejimi.
 - Bu ichki mexanizmlarni quritadi.

⚠️ DIQQAT

Konditsioner uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan bo'lsa, zanjir uzgichni o'chiring. Kirlar yig'ilishi va bu yong'inga sabab bo'lishi mumkin.

Konditsionerdan yana foydalaniladigan bo'lsa.

- 1 Havo filtrini tozalang va uni ichki blokka o'rnatang.
- 2 Ishki/tashqi bloklarning havo kirish va chiqish tirqishlarining to'silib qolmaganligini tekshiring.
- 3 Yerga tutashtirish simining to'g'ri ulanganligini tekshiring. U ichki blok tomonga ulanishi mumkin.

Foydali ma'lumotlar

Havo filtrlari va sizning elektr uchun to'lovlaringiz.

Agar havo filtrlari changlar bilan to'lib qolsa, sovutish quvvati pasayadi va konditsionerni ishlatish uchun sarflanadigan elektr quvvatining 6 % isrof bo'ladi.

Ishlatishga oid maslahatlar

<p>Xonani haddan tashqi sovutib/isitib yubormang.</p> <p>Bu salomatlikka zarar va elektr quvvatini isrof qiladi.</p>	<p>Jalyuza va pardalarni yopilgan holda saqlang.</p> <p>Konditsioner ishlayotgan vaqtda quyosh nurlarining bevosita xonaga tushishiga yo'l qo'ymang.</p>	<p>Xona haroratini bir xilda saqlang.</p> <p>Xona haroratining bir xilda bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun vertikal va gorizontal havo oqimi yo'nalishini sozlang.</p>
<p>Eshiklar va derazalar zich yopilganligiga ishonch hosil qiling.</p> <p>Xonadagi haroratni salqin saqlash uchun eshik va derazalarni iloji boricha kamroq oching.</p>	<p>Havo filtrini muntazam ravishda tozalab turing.</p> <p>Havo filtrini to'lib qolishi havo oqimini kamaytiradi va sovutish va quritish samaradorligini pasaytiradi. Har ikki haftada kamida bir marta tozalab turing.</p>	<p>Vahti-vaqti bilan xona havosini shamollatib turing.</p> <p>Derazalar doim yopilgan holda saqlanishini hisobga olsak, ularni har zamonda ochish va xonani shamollatib turish maqsadga muvofiq.</p>

Nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar! Vaqt va pulingizni tejang!

Ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatishga murojaat qilishdan avval quydagilarni tekshiring... Agar nosozlikni bartaraf qilib bo'lmasa, dileringizga murojaat qiling.

<p>Konditsioner ishlamayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Taymerni ishlatishda xatolikka yo'l qo'ymadingizmi? - Saqlagich erib ketmadimi yoki zanjir uzgich ishga tushmadimi? 	<p>Xonada qandaydir g'alati hid mavjud.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Buning xonadagi devorlar, gilam, mebel yoki matolardan chiqadigan namlik hidi emasligini tekshiring. 	<p>Konditsionerdan kondensatsiyalangan suv sizib oqayotganga o'xshaydi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Konditsionerdan chiqadigan havo oqimi xonadagi iliq havoni sovitganda kondensatsiyalanish yuz beradi. 	<p>Konditsioner qayta ishga tushirilganda u 3 daqiqa atrofida ishga tushmayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bu konditsioner mexanizmini himoyalash tizimidir. - Uch daqiqacha kuting va konditsioner ishlay boshlaydi.
<p>Samarali tarzda sovutmayapti yoki isitmayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Havo filtri kirlanganmi? - Havo filtrini tozalash ko'rsatmalariga qarang. - Konditsioner ilk marta yoqilganda xona harorati juda issiq bo'lgan bo'lishi mumkin. Uning sovushini kuting. - Harorat noto'g'ri o'rnatilganmi? - Ichki blokning havo kirish yoki chiqish tirqishlari to'silib qolmaganmi? 	<p>Konditsioner shovqin chiqargan holda ishlayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Suvning oqishiga o'xshash shovqinli tovushlar bo'lsa. * Bu konditsioner ichida oqayotgan freon tovushidir. - Siqilgan havoning atmosferaga chiqarib yuborilishiga o'xshash tovushlar bo'lsa. - Bu konditsioner bloki ichida ishlanayotgan namsizlantiruvchi suv tovushidir. 	<p>Qirsillagan tovush chiqayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Harorat o'zgartirganda old panelning kengayishi/qisqarishi va sh.k.natijasida shunday tovush chiqadi. 	<p>Masofadan boshqarish pulti displeyi juda xira yoki umuman ko'rsatmayapti.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bataryalar ishdan chiqmaganmi? - Bataryalar qarama-qarshi (+) va (-) yo'nalishlarda o'rnatilganmi? <p>Chaqmoq urganidan keyin xato kodi paydo bo'ldi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ushbu jihoz ortiqcha kuchlanishdan himoyalash zanjiri bilan jihozlangan. Xatolik yuz berishi mumkin, biroq bu – normal holat. Bir necha daqiqadan keyin u normal holatda ishlay boshlaydi.

Quyidagi holatlarda darhol xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling

- 1 Kuygan hid, kuchli shovqin kabi noodatiy holatlar yuz berganda. Konditsionerni ishlashdan to'xtating va zanjir uzgichni o'chiring. Bunday hollarda hech qachon konditsionerni o'zingizcha ta'mirlashga urinmang yoki tizimni qaytadan ishga tushirmang.
- 2 Elektr tarmog'iga ulash kabeli juda issiq yoki shikastlangan.
- 3 O'z-o'zini tekshirish funksiyasi xatolik kodini ma'lum qilsa.
- 4 Namlik past darajada bo'lsa ham, ichki blokdan suv oqib chiqsa.
- 5 Biror uzib- ulagich, uzgich (zanjir uzgich, yerga tutashtirish uzgichi) yoki saqlagich to'g'ri ishlamasa.

Foydalanuvchi qurilmaning noto'g'ri ishlashini oldini olish uchun muntazam ravishda jihozda tekshirish va tozalashni amalga oshirib turishi kerak.

Ayrim o'ziga xos holatlarda, bunday ishlar faqat xizmat ko'rsatish xodimi tomonidan bajarilishi kerak.

